

TARIX VA JAMIYAT

HISTORY AND SOCIETY
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
ЖУРНАЛ

JOURNAL
2022

№3

Bosh muharrir:
Pardaev A.H. JDPI, tarix fakulteti dekani, t.f.n. dosent.

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Aqchaev F.Sh. JDPI, tarix fakulteti, t.f.b.f.d. (PhD), dosent.

Mas’ul kotiblar:
Saidov J.O. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi
Xo‘janova M. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi

Tahririyat a'zolari:

- 1. Sagdullaev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik,**
- 2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 5. Choriev S. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 7. Pardaev M.H. – tarix fanlari doktori, dosent,**
- 8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 9. Yarmatov R. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent,**
- 11. Amanullaev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dosent,**
- 12. Toshboev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dosent,**
- 14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dosent,**
- 15. G‘ofurov J. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent**
- 17. Valiev A.X. – katta o‘qituvchi,**
- 18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi,**
- 19. Karimova N. – o‘qituvchi,**

Тарих ва Жамият илмий журнали

O'QUVCHI – YOSHLARDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI SHAKLLANTIRISHDA TARIXIY MEROSDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Ochilova Baxti Muradovna

*Jizzax DPI, Falsafa, tarbiya va huquq
ta'limi kafedrasи professori, f.f.d.*

Ergasheva Umida Oripovna

Jizzax DPI, sirtqi(Maxsus sirtqi) bo'limi stajiyor-o'qituvchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi globallashuv jarayonlarida millatlararo totuvlikni ta'minlashga bo'lgan talabning dolzarbli masalalari tahlil qilingan

Annotation: This article analyzes the urgency of the demand for interethnic harmony in the current process of globalization

Аннотация: В статье анализируется актуальность потребности в межнациональном согласии в условиях современного процесса глобализации.

Kalit so'zlar: millatlararo totuvlik, hamjihatlik, tolerantlik, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro hurmat, ko'p millatli yagona oila, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat.

Keywords: interethnic harmony, solidarity, tolerance, good neighborliness, mutual respect, multi-ethnic single family, mutually beneficial and practical foreign policy.

Ключевые слова: межнациональное согласие, солидарность, толерантность, добрососедство, взаимное уважение, многонациональная единая семья, взаимовыгодная и практическая внешняя политика.

Bugungi kunda yoshlarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash, ularning huquqiy va ma'naviy ongini o'stirish, axloqiy madaniyatini yuksaltirish, madaniy xulqiga tarbiyaviy ta'sir etish dolzarb masaladir.

Hozirgi globallashuv jarayonlarida millatlararo totuvlikni ta'minlashga bo'lgan talabning dolzarb bo'lishiga sabab, insoniyat kelajagini ta'minlash, global muammolarni tinch yo'l bilan hal qilishni talab qilmoqda.

Aslida tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, xalqimiz azal-azaldan tarixiy merosdan unumli foydalangan holdaadolat, erkinlik, muruvvat, mehr-oqibat, millatlararo totuvlik kabi fazilatlarni o'zida singdirib kelgan. Ayniqsa oilada, jamiyatda yoshlarni o'zga millat vakillarini hurmat qilish, ularga tolerantlik nazari bilan qarash tarbiyasiga katta e'tibor qaratilgan. O'z o'rnida ushbu mezon avlodlar tarbiyasining muhim omillaridan biri sanalgan. Milliy tolerantlik tushunchasida

Тарих ва Жамият илмий журнали

inson axloqiga oid sabr-bardoshli bo‘lish, hurmat, e’zoz, izzat ko‘rsata olish, rahmdillilik, mehru-muruvvat kabi sifatlar an’anaviy hususiyatga ega bo‘lgan.

O‘rtalik Osiyo xalqlarining asrlar mobaynida mintaqasi muammolarini bir yoqadan bosh chiqargan holda, hamjihatlik bilan hal etib kelganlar. O‘rtalik Osiyo xalqlari turkiy bir necha tillarda gaplashsalar ham bu xalqlarning ildizi bir, e’tiqodi, tarixi bir, masadi bir bo‘lgan. O‘rtalik Osiyoda yashab, jahon ilm-fani taraqqiyotiga katta hissa qo‘sib kelgan allomalarimiz yaxshi qo’shnichilikning, ahillikning, o‘zaro ko‘mak va yordamning ahamiyati katta ekanligini o‘zlarining ilmiy-falsafiy meroslarida ham keng yoritib bergenlar.

Ulug‘ alloma Abu Nasr Forobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” nomli asarida qo‘ni-qo‘snilarga ko‘mak berish, ularga hurmat bildirishlik yuksak ahloqiy fazilat ekanligini ko‘rsatib o‘tgan. Uning fikricha, eng qiyin ishlarni, og‘ir vaziyatlardagi muammolarni hech bir xalq yakka o‘zi hal eta olmaydi. Ahillik, totuvlik, o‘zaro ko‘mak natijasida bu mushkul muammolarni ham hal etsa bo‘ladi.

Alisher Navoiy ham o‘z dostonlarida, ma’naviy merosida yaxshi qo’shnichilik, o‘zaro hurmat tuyg‘ularini qadrlab kelgan. Alisher Navoiy o‘z zamonasining buyuk siyoshi sifatida barcha kishilarga bir xil munosabatda bo‘lib kelgan va har bir kishiga imkon darajasida yordam bergan. Alisher Navoiyni buyuk alloma sifatida bildirgan fikrlari, davlat arbobi sifatida yuritgan siyosati barcha xalqlar tomonidan o‘z vaqtida qo’llab-quvvatlangan.

Ajdodlarimiz tomonidan yaxshi qo’shnichilik va o‘zaro hurmat yaxshi fazilat qadriyat sifatida e’zozlanib kelingan. Shu boisdan ham ajdodlarimiz inson fazilatlari haqida fikr bildirganlarida “Yaxshi fazilat odamni odam bilan yaqinlashtiradi” deb hisoblaganlar.

O‘rtalik Osiyo xalqlari tarixi shundan dalolat beradiki, doimo o‘z ozodliklari uchun kurashganlarida birlashganlar va o‘z orzu-umidlari, maqsadlari yo‘lida uyushuv yo‘li bilan harakat qilganlar.

Yaxshi qo’shnichilik, o‘zaro hurmat munosabatlari O‘rtalik Osiyo xalqlari tomonidan mintaqaviy qadriyat deb kelingan va uni avaylab-asrashga, mustahkamlashga katta e’tibor bergenlar. Albatta, yaxshi qo’nichilik, o‘zaro hurmat munosabatlarini o‘z ichiga olgan bunday qadriyatlar madaniyati, tarixi, tili, urf-odatlari va an’analari mushtarak bo‘lgan xalqlar manfaatlariga xizmat qiladi. Yaxshi qo’shnichilik, o‘zaro hurmat,bir-biriga ko‘mak berish O‘rtalik Osiyo hududida istiqomat qiluvchi o‘zbek, qozoq, turkman, qirg‘iz, tojik xalqlariga xos bo‘lgan umumiyligi xususiyatdir.

Buyuk Turon deb atab kelingan ushbu hududda unib-o‘sgan mazkur xalqlarning tarixi, tili, madaniyati, urf-odatlarida juda ko‘p umumiyligi o‘xshashliklar mavjud. “Avesto” manbalariga ko‘ra, ajdodlarimiz tomonidan amal qilib kelingan bunday munosabatlar juda qadim zamonalarga borib taqaladi.

Тарих ва Жамият илмий журнали

Jumladan, “Avesto”ning birinchi qismida Zardusht haqida 70 dan ortiq- hikoyat va rivoyat yozilgan. Ular otashparastlar payg‘ambari Zardusht haqidagi afsonalardan iborat bo‘libgina qolmay undan quyosh xudosi Mitra haqidagi afsonalar ham o‘rin olgan bo‘lib, u yengilmas kuchga ega bo‘lib o‘tda kuymaydi, suvga cho‘kmaydi, undan o‘q o‘tmaydi. U odamlarga hamisha yaxshilikni ravo ko‘radi, ularga baxt nurini, baxt-saodatni ularshadi.

Bu muqaddas kitobda kishilarning tabiatni, olamni, hayvonot dunyosini bilishi haqidagi tasavvurlari o‘z aksini topgan. Kitobda jug‘rofiy hududlar, tog‘lar, ko‘llar, viloyatlar, etnik qabilalar, qadimgi davlatlar haqida diniy nasihatlar, olam, koinot, osmon, okean, yorug‘lik, jannat va do‘zax haqidagi fikrlar ham o‘rin olgan. Ko‘pgina tarixiy manbalardagi kabi “Avesto”da ham mardlik va e’tiqod olqishlanadi:

“...Alqov va kechirmoqni olqishlaymiz. Alqovchining alqovi va kechirmog‘ini olqishlaymiz. Dindoshlar orasida mardlik va e’tiqodni olqishlaymiz. Riyosiz, yolg‘onsiz, ezgu namozni olqishlaymiz...”¹.

Qadimdan bir ma’naviy-ruhiy iqlimdan nafas olib kelgan ajdodlarimiz tarixi shundan dalolat beradiki, XXI asr boshlariga kelib, har bir millat, elat, elatning milliy demokratiya, erkinlik uchun intilishi va uni yanada rivojlantirish yo‘lida mavjud qiyinchiliklarni birgalikda yengishni taqozo etadi. Zero, bu ajdodlarimizdan qolgan qonuniyat hamdir. Chunki bugungi dunyodagi umumiyligi, mintaqaviy globallashuv kuchayotgan bir sharoitda mintaqa xalqlari ajdodlari o‘gitlariga sodiq qolishni ham taqozo etadi.

Yaxshi qo‘schnichilik, o‘zaro hurmat singari fazilatlarni o‘z ichiga olgan qadriyatlar O‘rta Osiyo mintaqasidagi barcha millatlar, xalqlarning maqsad va intilishlariga muvofiq keladi².

Tinchlik va barqarorlikka xizmat qilib kelgan bunday fazilatlar millatning o‘ziga hurmat bilan qarashning asosiy bo‘g‘inlaridan hisoblanib, u hozirgi davrda ham taraqqiyotga, ma’naviy poklanishni ta’minlashga xizmat qilishi tabiiy.

Xo‘sish, ajdodlarning yosh avlod tarbiyasidagi asosiy mezonlardan hisoblangan – “millatlararo totuvlik”, “tarixiy meros” tushunchalari biz uchun nimalarni anglatadi?

Avvalo shuni qayd etish kerakki, millatlararo totuvlik – muayyan mamlakat mustaqilligini mustahkamlashda, shu mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlashda fenomen darjasidagi muhim omillardan biri. U millatlararo ahillik, xalqaro do‘stlik tushunchalarini ham o‘zida mujassam etadi.

O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati ilmiy-ijodiy guruhi tomonidan tayyorlangan “Falsafa: qomusiy lug‘at”ida bu millatlararo totuvlik tushunchasiga

¹ “Avesto” T.: “Sharq”, 2001yil, 294 bet.

²Tulenov J. Milliy qadriyatlar va ijtimoiy qadriyatlar . T.:O‘zbekiston, 1999 yil, 14-15betlar.

Тарих ва Жамият илмий журнали

shunday izoh beriladi: “muayyan hudud, davlatda turlimillat vakillarining bahamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalovchi tushuncha”³.

Bugungi kunda Yer yuzida 6 milliarddan ziyod aholi mavjud. O‘zbekiston hududida esa 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashamoqda. Har bir millat Yaratganning mo‘jizasi bo‘lib, o‘z tili, dini, maslagi, qadriyatlari, an'analariga ega. Shu bois mazkur ma’naviy omillarning amal qilishi millatlararo totuvlikning muhim shartlaridan sanaladi.

Tadqiqotimiz mavzusiga asos bo‘lgan tayanch tushunchalardan yana biri – tarixiy meros tushunchasidir. Bizningcha tarixiy meros tushunchasining mazmunini yoritish uchun avvalo “tarixiy xotira” va “tarixiy manba” tushunchalarining etimologiyasiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati ilmiy-ijodiy guruhi tomonidan tayyorlangan yuqorida lug‘atda “tarixiy xotira” tushunchasiga ham izoh berilgan. Jumladan: tarixiy xotira – “ajdodlar yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklarni kishilar ongi va kundalik amaliy faoliyatida qayta namoyon bo‘lishi, eslanishi, qadrlanishi”⁴.

O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati ilmiy-ijodiy guruhi tomonidan tayyorlangan yana bir lug‘at – “Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati”da “tarixiy manbalar” tushunchasining qisqacha izohi keltirilgan. Jumladan, mazkur lug‘atda izohlanishicha “tarixiy manbalar – o‘tmishdagi voqeа-hodisalarni o‘rganish uchun asos bo‘ladigan manbalar majmui”⁵ dir.

Demak shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, tarixiy xotira – muayyan millatning o‘zidan oldingi o‘tgan ajdodlari qoldirgan moddiy, madaniy, ma’naviy va ma’rifiy boyliklari majmui.

Biz qanday tarix va tarixiy-madaniy meros haqida gapirmaylik, fikr yuritmaylik mudom inson (xalq, millat) masalasiga duch kelaveramiz.

XIX asr oxiri va XX boshlarida yashab etgan nemis faylasufi, fenomenologiya asoschisi Edmund Gusserl insoniyat tarixini “ulkan fenomen” deb atab, uning markazida inson turishini qayd etgan⁶. “Inson, – deb yozadi u, – o‘zining tarixi, o‘zining ongli mavjudotligi haqida “metafizik”, xususan falsafiy muammolarni ko‘targanida tarixning “mohiyati” va ongning tarixdagi roli haqida fikrlagan bo‘ladi”⁷. Tarix falsafasi insonni tarix va meros markaziga qo‘yar ekan, uni tarixni shunchaki qayd etuvchi deb emas, balki unga ongli munosabatda bo‘lish orqali o‘zligini, ota bobolari salohiyatini, ushbu salohiyatdan unib chiqqan o‘zini, o‘z

³ Falsafa: qomusiy lug‘at(Tuzuvchi va mas’ul muharrir Q.Nazarov). T.: “Sharq”, 2004 yil, 262 bet.

⁴ Shu manba, 389-bet.

⁵ Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. (Tuzuvchi va mas’ul muharrir Q.Nazarov). T.: G`ofur G`ulom, 2013, 300-bet.

⁶ Гуссерль Э. Философия как строгая наука. – Новочеркасск: Агентство САГУНА, 1994. С- 59.

⁷ Shu manba, 55-bet.

Тарих ва Жамият илмий журнали

avlodini qanday sifatlarga ega bo‘lishi mumkinligini anglab yetadi. Tarixga bo‘lgan munosabatni shakllantirish, agar bu g‘ayrimilliy siyosat nuqtai nazaridan amalga oshirilsa, halq, millatni o‘ziga tobe ettirish, unda o‘z naslini bilmaydigan, eslamaydigan manqurtlik xislatlarini shakllantirish, pirovard natijada uni assimilyatsiya qilishga intilishdir. Bu o‘rinda totalitar tuzum davridagi g‘ayrimilliy siyosatni eslash mumkin. Taniqli siyosatshunos olim Narzulla Jo‘raev yozganidek: “Sho‘ro davrida “soviet turmush tarzi” shaklidagi havoyi, milliy manfaatlardan uzoqlashgan tendensiyaning vujudga kelganligi hukmron mafkuraning g‘ayriodatiy, yasama va zo‘raki g‘oyalar yig‘indisiga aylantirib yubordi. Ayni sovet turmush tarzi shaklidagi totalitar g‘oyaning ildiz ota boshlaganligi ayniqsa milliy respublikalarning qadimiy an’analarni siqib chiqardi. Zo‘ravonlik bilan odamlar hayotini o‘zgartirib yubordi. Natijada jamiyatda mafkuraviy parokandalik, ruhiy ozurdalik, ma’naviy kemtiklik, ma’rifiy tanazzul vujudga keldi. Mafkura yangi “soviet an’anolari”ni vujudga keltirishga intildi. Milliy ruh, milliy psixologiya, xalq ma’naviy ehtiyoji singari milliy tarixiy an’analarni yo‘q qilishga intildi. Xalq o‘zining tarixiy an’analari bilan sovet an’analari o‘rtasidagi ziddiyat qurshovida qoldi. Bunday ruhiy va ma’naviy ziddiyat o‘tmish va istiqbol o‘rtasidagi munosabatlarni chigallashtirib yubordi”⁸.

Aynan shuning uchun ham mustaqillik davrida tarixiy meros, tarixiy xotira, tarixiy ong, tolerantlik, millatlararo totuvlik masalalari dolzarb masalaga aylandi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra dunyo aholisi bugungi kunda 7.8 milliardni tashkil etmoqda. Dunyo aholisining o‘rta hisobda 96 foizini uch mingga yaqin millat birlashtiradi, qolgan 4foizini elat va qabilalar tashkil etadi. Aslida har bir inson, tili,dini vamillatidan qat’iy nazar, Vatan tuyg‘usiga, ezgulik qilib yashash hissiga ega. Shuning uchun ham har bir millatni yaratganning mo‘jizasi deyish mumkin. Shu o‘rinda millat tushunchasiga to‘xtalib o‘tsak. Millat tushunchasiga turli adabiyotlarda turlicha ta’riflar berilgan. Menimcha biz tadqiq etayotgan mavzuga mos ta’rif falsafa qomusiy lug‘tida berilgan : “Millat – til, ma’naviyat, milliy o‘zlikni anglash, ruhiyati, urf-odatlar, an’analalar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi ijtimoiy aloqalar bilan bog‘langan mustaqil sub‘yekt sifatida o‘ziga xos moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratuvchi kishilarning etnik birligi”.⁹ Millat ma’lum bir hududda tarixiy taraqqiyot davomida yashab kelgan kishilarning ma’naviy-ruhiy birligi asosida shaklanadi, shunday ekan u insoniyat taraqqiyotining o‘byekтив mahsulidir. Millatning taraqqiyoti uchun moddiy omillar muhim va zaruriy shart hisoblanadi, biroq millatning abadiyligini taminlaydigan asosiy omili – ma’naviy, ruhiy salohiyati hisoblanadi.

⁸ Jo‘rayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. T.: Ma’naviyat, 2008, 335-bet.

⁹ Qarang: Falsafa qomusiy lug‘at. T.: 2004y. 261-bet.

Тарих ва Жамият илмий журнали

Millatlar o‘zini-o‘zi rivojlantirishi, tinimsiz mehnati natijasida insoniyat hozirgi darajadagi sivilizatsiyaga erishgan. Bunday rivojlanishning yana bir sababi millatlar o‘rtasidagi muloqotdir. Millatlararo muloqot madaniyati kishilarning boshqa xalqlar bilan munosabatini ko‘rsatuvchi madaniyat hisoblanadi. Millatlararo muloqot madaniyatini millatlararo munosabat jarayonida ko‘rish mumkin. Millatlar bir-biri bilan munosabatlarida ular asosan o‘z millatining madaniyati, tilini namoyon qiladi. Bunda ular o‘rtasidagi farqlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Agar jug‘rofiy jihatdan yaqin millat vakillari o‘rtasida munosabat o‘rnatilsa, ularning bir-birini tushunishi osonroq kechadi. Aksincha bir-biridan uzoqda joylashgan millatlar o‘rtasidagi tafovutlar o‘zgacha bo‘lganligi sababli, bu jarayonda millatlar o‘rtasida tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, g‘arb mamlakatlarida yashovchi millatlar suhbatdoshining ko‘zlariga tik qarab gapirishadi, Osiyo millatlarida esa ko‘zga tik qarab gapirish beadablik hisoblanadi. Bunday vaziyatlarda millatlar bir-birlarini tushunishlari muhim ahamiyatga ega. Millatlar o‘rtasidagi munosabatlarda asosiy qoida – bu ularning siyosiy va huquqiy jihatdan tengligidir. Buyuk millatlar o‘z imkoniyatlariga ishonib, kichik millatlarga nisbatan noxolis munosabatda bo‘lishlari turli xil mojarolarga sabab bo‘lishini tarixdan ko‘plab misollar keltirish mumkin. Shunday ekan, mamlakatlarning siyosiy va huquqiy jihatdan tengligini tan olish bugungi kun dunyo goysisiyosatining zarur qoidasi bo‘lishi shart. Bundan tashqari hozirgi pandemiya sharoitida dunyo iqtisodi millatlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik va hamjihatlikni mustahkam bo‘lishi lozimligini ko‘rsatmoqda.

Mutaxassislar fikricha, insoniyatning necha ming yillik taraqqiyotini asosan uch narsada mujassam bo‘lgan. Bular:

- Umuminsoniy sivilizatsiya
- Bozor iqtisodiyoti
- Millatlar.

Bunda umuminsoniy sivilizatsiya jamiyat taraqqiyotining zamini va asosidir; u doimiy harakatda va rivojlanishda, bozor iqtisodi munosabatlariga tayangan holda shakllanadi. Biroq bozor munosabatlarini amalga oshirib, hayotiy omilga aylantiradigan amaliy kuch bu – millatlardir. Demak, hozirgi bashariyat taraqqiyotining ta’minoti uchun millatlarning ravnaqi va o‘zaro munosabatlarning mustahkamlanishi hayotiy zaruratdir.

Qayd etilganidek, millatlararo hamjihatlik deyilganda millatlarning madaniyati, urf-odatlari, diniy e’tiqodlaridan qat’iy nazar, umumiy maqsad yo‘lida bir-birlarini tushunishlari, hurmat qilishlari hamda bir maqsadni amalga oshirishda bиргаликда harakat qilishlari tushuniladi. Millatlar o‘rtasidagi hamkorlikning mustahkamlanib borishi yoki aksincha bo‘lishi ularning qanchalik bir-birlarini tushungan holda harakat qilishlariga bog‘liqdir.

Тарих ва Жамият илмий журнали

Yer yuzidagi 1600 dan ortiq millatning, 200 ga yaqinida o‘z milliy davlatchiligi mavjud. Bunday sharoitda butun dunyoda millatlararo totuvlikni ta’minlash uchun millatlarning ruhiyati, manfaatlarini doimiy ravishda o‘rganib boorish lozim. Agar millatlararo totuvlikka bir yoqlama yondashilsa, turli milliy nizolar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Bu esa ayrim kam sonli millat yoki elatlarning yo‘q bo‘lib ketishiga olib kelishi mumkin. Millatlararo totuvlik tushunchasini izohlashda yana bir tushuncha millatparvarlik haqida so‘z yuritmoqchimiz. Bu tushuncha jahon sivilizatsiyasida millatlarning o‘rnini to‘g‘ri tushunish, yer yuzida mavjud barcha millatlarni hurmat qilish, ularning ozodligi, tengligi tarafdori bo‘lishni anglatadi. Millatparvarlik har bir millat vakilidan millatlar va milliy munosabatlar sohasida sohasida ma’lum bir tushunchaga, bilimga ega bo‘lishni, dunyoning mana shunday taraqqiy etishida millatlarning o‘rnini bilishni taqozo etadi. Shu bilan birga, millatparvarlik barcha millatlarning o‘rtasidagi farq va tafovutlarni o‘z holicha qabul qilish hamdir. Kishilarda mana shunday madaniyatni shaklantirlsa, bizningcha millatlararo totuvlik o‘z-o‘zidan yuksalib boraveradi.

Bugungi pandemiya sharoitida millatlar jahon hamjamiyati atrofida birlashib, davlatlar o‘rtasidagi aloqalar chegara bilmas darajada millatlararo totuvlikka, milliy manfaat nuqtai nazaridan yondashuvni taqozo etadi. Ya’ni yer yuzida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar shiddatli tusga kirib borayotgan bir sharoitda, har bir millat manfaatlaridagi o‘ziga xoslikni avaylab-asrashni, shuningdek, ularni boshqa millatlardagi o‘xshashlik jihatlarini topa bilish millatlararo totuvlikni barqarorlashtirishning muhim omilidir. Tadqiqotchi olimlar millatlararo totuvlikni yo‘lga qo‘yishda globallashuvning salbiy ta’sirlariga ham e’tibor qaratishmoqda. Globallashuv natijasida qaysi millatlar yoki davlatlar qudratli bo‘lsa, ularga xos bo‘lgan odatlar asosida yashash, umumiyligini qadriyatlarga asoslanish hamda turmush tarsi bixillashshiga intilish oqibatda milliy an’analar, urf odatlar va qadriyatlarning kuchlilar soyasida qolib ketishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun pandemiya sharoitida millatlararo totuvlikni oqilona yo‘lga qo‘yishda etnomilliy an’ana va qadriyatlarni, xalqlarning intilishlarini hisobga olish lozimdir.

Chunki, butun dunyoga tarqalgan tarqalgan noma’lum virus o‘z vaqtida insoniyatni sarosimaga solib qo‘ydi. Bu virusning butun dunyoga tarqalishiga qaysidir ma’noda millatlar va davlatlar o‘rtasidagi totuvlikning yetarli darajada bo‘limganligi ham sabab bo‘ldi, nazarimizda. Buning oqibatida ko‘plab davlatlar ham milliy, ham iqtisodiy jihatdan katta talofotlar ko‘rishiga sabab bo‘ldi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterresh pandemiya davrida dunyo duch kelgan uchta asosiy xavfni ma’lum qildi. “Ufqqa qarab, uchta asosiy xavfni ko‘rmoqdaman”, deydi Guterresh. Uning so‘zlariga ko‘ra, birinchidan, odamlar hukumatlarga va jamoat institutlariga ishonchni yo‘qotmoqda. Ikkinchidan, global iqtisodiy tartib buzilmoqda, shu jumladan, inqiroz tufayli tengsizlik holati

Тарих ва Жамият илмий журнали

tobora kuchaymoqda. Uchinchidan, koronavirus repressiyani oqlash uchun ishlatilmoqda.¹⁰

“Bunday global falokat sayyoramizda so‘nggi yuz yilda kuzatilmagan edi. Bu ofat butun insoniyatning zaif jihatlarini yaqqol ko‘rsatdi. Hozirgi tahlikali va murakkab vaziyat yer yuzidagi barcha davlatlar va xalqlar o‘zaro bog‘liq ekanini, o‘rtamizda muntazam muloqot, ishonch va yaqin hamkorlik o‘ta muhimligini isbotladi.

Shu yo‘lda barchamiz hukumatlar, parlamentlar va fuqarolik jamiyatlarining o‘zaro sa‘y-harakatlarini birlashtirish, umumiylashtirish, mas’uliyat tamoyillarini mustahkamlash, xalqaro sheriklikni muvofiq holda rivojlantirish, Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining maqomi va salohiyatini oshirish, vakolatlarini kengaytirish lozimligini chuqur angladik.

Maqsadimiz – har bir insonning asosiy huquq va erkinliklarini, salomatligi va farovonligini ta’minlaydigan adolatli global tizimni birqalikda yaratishdir.

Bu borada biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida Pandemiyalar davrida davlatlarning ixtiyoriy majburiyatlari to‘g‘risidagi xalqaro kodeksni ishlab chiqishni taklif etamiz. Ushbu hujjatda har bir davlatning o‘z fuqarolari va xalqaro hamkorlari oldidagi majburiyatlari aks etishi lozim»,¹¹ dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, pandemiya sharoitida millatlararo totuvlikka talab ikki barobar ortganini ko‘rishimiz mumkin. Bunday sharoitda har bir davlat o‘zining etnik- milliy birligidan kelib chiqqan holda, o‘z hududida yashovchi millatlar va elatlari o‘rtasidagi o‘zaro, siyosiy va huquqiy tenglikning amalda mavjud bo‘lishiga alohida e’tibor qaratishi lozimligini hayotning o‘zi taqozo etmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda millatlararo totuvlik deyilganda butun yer yuzida yashovchi barcha millatlar va elatlarning bir-birlari bilan o‘zaro hurmat, boshqa millatlarning urf-odat va an’analari, qadriyatlarini qadrlagan holda, o‘z milliy manfaatlari qatorida o‘zga millatlar manfaatlarini ham unutmasdan muloqotda bo‘lishlarini tushunish mumkin.

Barchamizga ma’lumki, jamiyatda millatlararo totuvlikni ta’minalash, ko‘p millatli yagona oila tuyg‘usini mustahkamlash, o‘quvchi-yoshlarni ona vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga yo‘naltirilgan bir qator ishlar amalga oshirilishi uchun tashkiliy-huquqiy asoslar yaratilgan. Milliy siyosatimizning asosi esa asosiy Qomusimizdir. Konstitutsiyamizni I va II bo‘limlarining ayrim moddalarida millatlararo totuvlikni ta’minlovchi moddalar kiritilgan. Jumladan, 4-modda: “... O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minalaydi, ularning rivojlanishi uchun

¹⁰Qarang: UzA.uz saiti

¹¹Qarang: Sh. M.Mirziyoyevning BMT ning 75-sessiyasidagi nutqidan.

Тарих ва Жамият илмий журнали

sharoit yaratadi”, 18-modda: “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar qonun oldida tengdirlar”.

O‘zbekiston kabi ko‘p millatli mamlakatda turli millatlar manfaatlarini uyg‘unlashtirish, ular orasida totuvlikni ta’minalash taraqqiyotning hal qiluvchi omillaridan biri hisoblanadi. Chunki millatning istiqboli boshqa xalqlar va mamlakatlarning taraqqiyoti butun jahondagi vaziyat va imkoniyatlar bilan bog‘liqidir. Dunyo bo‘yicha birinchi navbatda qo‘shti mamlakatlarda yonma – yon yashayotgan etnoslar orasida tinchlik, osoyishtalik, barqarorlik, hamkorlik, teng huquqli munosabat bo‘lmasa, ulardan hech biri o‘zining porloq istiqbolini ta’minalay olmaydi. Shu o‘rinda Prezident Sh. Mirziyoyevning quyidagi fikrlari ahamiyatga molikdir: “Turli xavf-xatarlar kuchayib borayotgan bugungi tahlikali vaziyatda beba ho boyligimiz bo‘lgan tinclik va osoyishtalikni ko‘z qorachig‘dek saqlashimiz, yurtimizdagи millatlar va dinlararo hamjihatlik, o‘zaro hurmat va mehr-oqibat muhitida yanada mustahkamlashimiz kerak”.¹²

Bu fikrlarning amaldagi isboti sifatida Sh. M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan Xarakatlar strategiyasining beshinchi yo‘nalishi “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minalash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat” deb nomlanishi, shuningdek, aynan millatlararo tutuvlikka oid 2019 yil 15 noyabrda 5876- son bilan imzolangan, “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Prezident farmonini misol sifatida keltirish mumkin.

Qayerdaki millatlararo totuvlik g‘oyasining ahamiyati to‘g‘ri anglanmas ekan, jamiyat hayotida turli ziddiyatlar, muammolar vujudga keladi. Bugungi kunda dunyoning ayrim davlatlarida yuz berayotgan milliy nizolar shundan dalolat berib turibdi. Mana shunday noxush holatlarni oldini olish uchun avvalo yosh avlodni to‘g‘ri tarbiyalamog‘imizlozim bo‘ladi. Bunda bizga boy tarixiy merosimiz yordamga keladi.

Har bir millatning tarixiy merosi o‘sha millat tomonidan yaratilgan moddiy-ma’naviy va boshqa barcha turdagи merosni qmrab oladi. Ularning ayrinlari umumjahon harakterga ega bo‘lsa, qolganlari shu millat e’tiboridagi meros sanaladi. Tarixiy meros millat taraqqiyotining turli tarixiy bosqichlarida vujudga kelib, millatning o‘zi bilan bog‘liq boylik hisoblanadi. Ana shu tarixiy meros orqali o‘quvchi yoshlarimizni o‘zlaridan boshqalarni millati, kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar hurmat qilishlarini o‘rgatishimiz lozim.

O‘quvchi yoshlarni ruhiyatining rivojlanishida balog‘at davri muhim bosqich hisoblanadi. Bu davda atrof-muhitga munosabatda barqarorlik belgilari namoyon

¹² Qarang: Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz, T.: “O‘zbekiston”, 2017y.

Тарих ва Жамият илмий журнали

bo‘la boshlaydi. Shaxsiy harakter shakllanadigan ushbu bosqichda ular ongi va shuuriga burch, vijdon, mas’uliyat, o‘zini va boshqalarni hurmat qilish hislatlarinin turli ma’rifiy va ma’naviy usullardan foydalangan holda singdirish lozim. O‘quvchi yoshlarning tarbiyasida oila, davlat va jamoat tashkilotlari imkoniyatlaridan unumli foydalanish lozim. Dastlab oila tarbiyasiga katta ahamiyat berishimiz darkor. Chunki bola hayotining barcha bosqichlarida oila ta’sirida bo‘ladi. Shuningdek, ta’lim-tarbiya muassasalarida ham millarlararo totuvlikka oid tarbiyaviy ishlar izchilligini ta’minalash zarur.

O‘zbekistonda bolalarni faqatgina ota-onada emas, balki qarindosh- urug‘lar, qo‘ni-qo‘shnilar, mahalla-kuy ham tarbiyalaydi, degan mazmundagi naql bor. Shunday ekan, o‘quvchi yoshlarni ongiga va qalbiga millatlararo totuvlikni singdirish faqat ijtimoiy-gumanitar soha vakillarining vazifasi bo‘lib qolmasdan, balki barcha ta’lim va tabiyaga taalluqli bo‘lgan jamiyatimiz a’zolarining vazifasi hamdir.